



G'ARB FALSAFASIDA AKSIOLOGIK KONSEPSIYALAR EVOLUTSIYASI

Ravshanqulov Bunyod Bahodir o'g'li

O'zMu "Falsafa va mantiq" kafedrası 2-kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8017728>

ARTICLE INFO

Received: 30th May 2023

Accepted: 07th June 2023

Online: 08th June 2023

KEY WORDS

Qadriyat, milliy qadriyat, diniy qadriyat, millar aksiologiya evolutsiya, konsepsiya, qadr, renessans, axloq.

ABSTRACT

Dunyoning mafkuraviy manzarasi o'zgarib borayotgan bir davrda millatlarning o'zligini va milliy genofondini saqlab qolish muammosi paydo bo'lmoqda. Bular saqlab qolishda eas qadriyatlarning o'rni juda muhim. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda qadriyatlar uyg'unligi ularning falsafiy ildizi va bu sohada olimlar va faylasuflar olib borgan izlanishlarni bilmadan turib qadriyatning moxiyatini to'la qonli ochib berib bo'lmaydi. Yangi davrda shakllanib qolayotgan qadriyatlarning asosi qayerdan olinayotgani bu qadriyalarning xozir va kelajak avlodga ta'siri qanday bo'lishi ustida fikr yuritish asosiy vazifalardan biriga aylanib qolmoqda. Dunyoning ko'p mafkuraviyligi va milliy va diniy genosidlar avj olib bormoqda ularni oldini olish uchun esa muqobiln tendensiyalar ishlab chiqilishi kerak.

Bu kabi muammolar esa aksiologiya sohasidagi mutaxassislaridan muqobil tendensiyalar ishlab chiqish va global ma'naviy tahdidlarni oldini olishga qaratilgan nazarya va tendensiyalarni ishlab chiqish va ularni yangi davrga, yangi jamiyatga, yangi dunyoqarashga moslashtirishni talab etadi. Milliy qadriyatlar, diniy qadriyatlar va ularning uyg'unligi, falsafiy tarixi va ildizlarining moxiyatiga asoslarga dasturlarni ishlab chiqib ularni jamiyatga tatbiq etish yangi davrda milliy o'zlikni saqlab qolish va turli illatlarga qarshi kurashish imkonini yaratib beradi. Milliy va din qadriyatlarining rivojlanishi jamiyat ongini isloh qilishga imkon beradi.

Kirish: bizga ma'lumki g'arb falsafasi falsafa sohasida xususan aksiologiya sohasida o'z maktabiga ega xisoblanadi. G'arb salsafasida evolutsiyalar jarayoni qadim o'tmish va uyg'o'nish davri hamda xozirgi falsafiy jarayonlar bilan davom etib kelmoqda. G'arb



aksiologik konsepsiyalari tarixini bilmasdan turib aksiologiyaning tub mazmun va moxiyatini anglab bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida g'arb faylasuflarining klonseptual qarshalari va sohaga oid asarlari muhim ahamyat kasb etdi va maqolaning mazmun mohiyatini ochib berishda o'ziga xos o'rin egalladi. Tahlil jarayonida qadriyatlarining g'arb diyorida shakllanishi va rivojiga ta'sir etgan omillar jarayonlar va tarixiy jarayonlarning to'liq mazmuni bilan tanishildi. Natijad shun aniqlandiki g'arb faylasuflari konsepsiyalarida va aksiologik evolutsiyalar jarayonida inson va unga aloqador bo'lgan masalalar bosh rol ni egallaydi.

MUHOKAMA NATIJALARI

Dunyoda barcha xalqlarda o'z tilida qadr, qadriyat, qimmat, kabi so'zlar uchrab turadi. Bu tushuncha kecha yoki bugun paydo bo'lgan tushuncha emas, bu tushunchaning kelib chiqishi qadim o'tmishga borib tutashadi. Chunki bu tushuncha qadim zamonlardan turli ko'rinishda ishlatilga bo'lishi mumkin lekin mazmuni bir xil bo'lgan. Qadim zamonlarda faylasuflar qadriyat haqida bahs munozaralar olib borishgan. Qadim faylasuflari qadriyat, qadr, qadri tushunchalarini keng ishlatishgan bo'lsada aksiologiya atamasi yaqin o'tmishga borib qadaladi. Bu haqda esa quyida alohida to'xtalib o'tamiz albatta, bugungi kunda biz qadriyatlarisiz hayotimizni milliy va madaniy taraqqiyotimizni tasavvur eta olmaymiz. Faqatgina biz emas balki butun dunyo taraqqiyotini tassavvur eta olmaymiz desak to'g'ri bo'ladi. Nega degandaki qadriyatda millatning tarixiy xotirasi, mintaliteti, ruxiyati, dunyoqarashi, o'zligi aks etgan hisoblanadi. Bularsiz esa davlatlar va millatlar taraqqiyotini tasvvur qilib bo'lmaydi hatto.

Jaxondagi barcha xalqlar tilida obyektga qadri munosabatda bo'lish, ularni subektiv kechirish va tushinishni ifodalovchi tushuncha mavjuddir. Bu tushuncha ruslarda «ценность», o'zbeklarda «qadr», nemislarda «wert» deb ataladi. Butun dunyoda xalqlarning o'z qadriyatlarini urf-odatlarini mavjud bo'lib, xalqlar bularni asrab avaylaydi. G'arbda qadriyatlarini o'rganuvchi soha aksiologiya deb ataladi. Bu atama yunoncha "axio" qadriyat va "logos" ta'limot so'zlaridan tashkil topgan. G'arb aksiologiya falsafasida Pifagor, Sokrat, Platon, Aristotel, Protagorlar bilan bir qatorda uyg'onish davri faylasuflari Mishel Monten va ko'plab B.Spinoza, Leybnist, Bekon, Gobss, Lokk Kant, Radishev, Solovyov kabi ko'plab faylasuflarning bu sohaga qo'shgan xissasi juda katta. Qdimgi greklarning falsafiy qarashlari o'ta aksiologik xarakter kasb etgan. Birgina misol qilib oladigan bo'lsak Protagorning "inson hamma narsaning o'lchovi" –degan qarashi qoidasi antic aksiologiyaning formulasiga aylangan edi. Aristotel o'zining metafizika asarida quyidagicha ta'kidlaydi: «Protagor inson hamma narsaning o'lchovidir deyishi bilan faqat quyidagilarni nazarda tutgan: har bir odam nima qanday tuyulsa ham mavjud, ham mavjud emasdur, u yaxshi va yomondir; boshqa qarama qarshi fikrlar ham to'g'ridir, chunki bir narsa chiroyli bo'lsa, boshqalari aksinchadir: har bir odamga nimaiki qanday tuyulsa o'lchovdir».¹ Platon olamga qadriyatli munosabatning eng muhim vaziyatlarini, uning hilma-hilligini va birligini ochib bergan edi. Aristotel qadriyatning moxiyati va mavjudligini tushunishda Platon fikriga

¹ Аристотель. СОЧ.в 4т.М.:Мысль 1976.Т.1.С.281



qo'shilmaydi u b unday deydi: "Agar qadriyatga borliq hos bo'lmasa, u qadriyat emas deydi. SHuning uchun ham qadriyat va qadriyat borlig'i, go'zallik va go'zallik borlig'i aynan bo'lishi kerak"² Aristotel o'zining "Katta etika" asarida qadriyatni shunday tariflaydi; "Oliy qadriyat mukammal maqsad, mukammal maqsad esa baxtdan boshqa narsa emasdir. Biroq baxt juda ko'plab qadriyatlardan tashkil topadi". Aristotel qadriyat va go'zallikni bir-biri bilan qorishtirmaydi aksinch qadriyatning o'ziga xos hususiyatlarini ochishga xarakat qildi. "Ritorika" asarida go'zallikni foydalilikka qarshi qo'ydi: "Foydali narsa har bir odamning o'zi uchun qadriyatlidir, go'zallik esa daxlsiz qadriyatdir"³ Aristotel qadriyatlarni tasniflab beradi va ongli ravishda qadriyat va qadriyat tushunchalarini qo'llaydi. U o'zining "Katta etika" asarida qadriyatlarni qismlarga ajratadi va quyidagicha tasniflaydi: birinchi ezozlanadigan, ikkinchi maqталadigan narsalarga, uchinchi esa qadriyat-imkoniyatlarga taalluqli bo'ladi. Aristotel e'zozlanadigan qadriyat deganda yaxshi, ilohiy qadriyatni, masalan, jon va aqlni nimaiki birlamchi bo'lsa o'shalarni nazarda tutaman degan edi. Fozillik ham qadriyat, u tufayli inson hurmatga munosib bo'ladi, u shundagina fozil kishilarga xos go'zallikka ega bo'ladi: "Maqталadigan qadriyat" –bu, xatti-harakati maqtovga loyiq bo'lgan fozil kishilarning o'zidir. Qadriyatlarining to'rtinchi turi ham bor. Bor bu boshqa qadriyatlarini yaratuvchi qadriyatdir. Masalan, gimnastika shunday qadriyatlarini yaratuvchi qadriyat u sog'liqni yaratadi. Aristotel fikriga ko'ra jondagi qadriyat eng yuksak qadriyat. U namoyon bo'lishiga ko'ra uch xil: oqillik, fozillik va lazzatlanish. Xullas, Aristotel qadriyatlarining nisbati masalasiga etibor qaratar ekan qadriyatlarining haqiqiy o'lchovi fozil insondir degan edi.

Yevropada Renessans yani uyg'onish davri qadriyatlar masalasini ham chetlab o'tmadi. Bu davrda ko'plab olimlar insonni mo'jiza barcha qadriyatlarining ososiga qo'yishdi bu esa albatta o'z navbatida qadriyatlar masalasida yangi davr boshlanganini anglatar edi. Bu davrda F.Bekon, T.Kompanelli, B.Spinoza, V.Leybnist kabi olimlar qadriyatlar masalasida qimmatli fikrlar bildirishdi.

Taniqli mutafakkirlardan xisoblangan Frensis Bekon qadriyatni intilish maqsadi deb atadi. Bekon fikrich qadriyat hamisha konkret subyektni taqazo qiladi. U kim uchundir yashaydi. Bekon fikricha, tabiatda mavjud bo'lgan qadriyatlar «xususiy» va «umumiy» bo'ladi deydi. Uning fikricha tabiatda xususiy qadriyatlarga intilish umumiy qadriyatlarga intilishdan o'zib keta olmaydi deydi. Faylasuf: "bu qonun fuqarolik ishlarida ham amal qilsa edi", - deb yozdi".⁴ Bekonning fikricha qadriyat individual yoki shaxsiy va ijtimoiy qadriyat sifatida mavjud bo'lishi mumkin. Qadriyatlarining moxiyatining bunday namoyon bo'lishi ularning butun yoki ikki qismga taalluqli ekaniga bog'liq bo'ladi. Bekon qadriyatni "tana" va "qalb" qadriyatiga ajratadi. Uning fikricha tana qadriyati sog'lik, go'zallik, kuch-quvvat va lazzatdan tashkil topadi deb xisoblaydi. Qalb qadriyati jonni sog'lom, hayajonlardan holi va go'zal qilishni hamda haqiqiy axloq bilan bezatishni, jasur va hayot sinovlariga chidamli, lazzat va quvonchni jonli his etishga qodir qolishni xoxlaydi.⁵

O'z davrining yetuk mutafakkirlaridan biri bo'lgan Benedikt Spinoza aksiologiya yani qadriyatlar sohasida o'ziga xos o'rin tutadi. Uning "Xudo, inson va uning baxti to'g'risida

² Аристотель. СОС.В 4т.М.:Мысль 1976.Т.1.С.196

³ Античные риторикки-М.: Наука,1978,С.98.

⁴ Бэкон Ф.Соч.В.2 т.-М.Мысл 1972.т.2.С.205-206.

⁵ Бэкон Ф.Соч.В.2 т.-М.Мысл 1972.т.2.С.205-206.



qisqacha risola” asarining bitta bobini “Nima yaxshi v anima yomon” deb atadi. Bu asarida u “Yaxshilik va yomonlik tafakkurga oidmi yoki real mavjudmi? Degan masalani qo’ydi. Faylasufning takidlashicha, narsa ham, xatti-harakatlar ham yaxshi yoki yomon bo’lmaydilar, binobarin, yaxshi va yomon tabiatda mavjud emas deydi. Yaxshi va yomon tabiatda mavjudligini inkor etish, ularni fikriy moxiyatiga kiritish insonning baholanishida subyektiv o’zboshimchalikni anglatadimi degandi? Hech qachon anglatmaydi! Spinozaning aytishicha odamlarning biron narsani yaxshi deb atashlari uning eng umumiy g’oya bilan muvofiq ekanligini anglatadi. Eng umumiy baholovchi tushunchalar maqtoqli va uyatli gunox va savob tog’risidagi tushunchalardir. Bu tushunchalar kishilarning o’zlarini erkin deb hisoblashlari natijasida vujudga keladi.⁶

Gollandiyalik bu mashhur faylasufni qadriyatli baholashda subyektizimga og’ib ketishida ayblash no joiz. Bu faylasuf XVII asrdayoq qadriyat va fakt, va qadriyat va narsalarning aynan emasligini tushunib etdi. Bu esa XIX-XX asr aksiologiyasining katta yutug’i hisoblanadi. Spinoza yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik real mavjudlik deb xisoblamagan edi. Ularda alohida bir reallikni, obyektiv real munosabatlarni ko’rdi. “ Men qadriyat deganda biz uchun foydali bo’lgan narsalarni tushunaman” –deb yozgan edi Spinoza.⁷

XVII asrning oxirlariga kelganda yevropada Spinoza falsafasiga qarshi bo’lgan qadriyatni yangi konsepsiyasi vujudga keldi. Bu konsepsiyaning asoschi Gotfrid Vilgelim Leybnist edi. “Qadriyat va go’zallik Spinoza aytganidek faqat biz uchungina axamyatli, biroq xudoga begona bo’lgan narsa emas. Qadriyat uchun ishlatiladigan donishmand aql to’g’risidagi fikrlarni va so’ngi sababni rad etish also yaramaydi,”⁸-deb yozdi Leybnist.

Leybnist “donishmand aql” deganda Xudoni nazarda tutgan edi, bu esa uning o’sha davrda qadriyatli tasvurlarini subyektivlashtirishga qarshi javobi edi. Albatta, u o’sha davrning keng yoyilgan maqtovgga loyiq bo’lgan fazilatli inson xaqidagi qarashlariga also toqat qilolmagan. Uning fikricha qadriyatning obyektiv asosini topish zarur edi, bu asos Xudo «eng donishmand aql « edi. Leybnist nazarda moddiy olam Xudoning aralashuvizis ishlaydigan mashina yoki soat mexanizmi emas biroq u qandaydir tuzatishlar va o’zaqgarishlar qilishni talab etmaydi. “Xudo xamma narsani oldindan ko’rgan, xamma narsa to’g’risida oldindan g’amxo’rlik qilgan. Uning ishlarida ilgaridan qaror toptirilgan garmoniya va go’zallik mavjuddir”.⁹ Leybnist fikricha xudo mukammallik va qadriyatning obyektivligini qaror topdirish uchun “yetarli asosdir”, u bizning fikrimizning qandaydir natijasi nemas balki u umumiy tabiatda mavjud xisoblanadi. Leybnistning “qadriyat” tushunchasini tariflashga xarakat qildi. “Qadrli narsa qadriyat nuqtai nazaridan ortiqlikdir. Qadriyat mukammallikka yordam beruvchi narsadir, mukammallik esa mohiyatdan ko’proq narsani o’z ichiga oladi. Ortiqlik-qandaydir eng muxim narsa, yani buyuk xissa qo’shuvchi narsadir. Qadriyatga bo’lgan muayyan munosabat orqali foydalilik” aniqlanadi. Foydalilik yana ham mukammallikka yordam beruvchidir, bu ana shu o’z-o’zi uchun qadriyatdan farqlanadi. Yoqimlilik, mukammallik va foydalilik orqali aniqlanadi. Yoqimlilik sezuvchiga yana ham

⁶ Спиноза Б.Избран.Произведения в двух томах.- М.:Госполитиздат, 1957.Т.1.С.399-400

⁷ Спиноза Б.Избран.Произведения в двух томах.- М.:Госполитиздат, 1957.Т.1.С.550.

⁸ Лейбниц Г.В.Соч.В4т.-М.:Мысль, 1982.Т.1.С.210.

⁹ Лейбниц Г.В.Соч.В4т.-М.:Мысль, 1982.Т.1.С.436



ko'proq mukammallik beradi".¹⁰ Qadrlı bo'lishlikning ziddi xech narsaga arzimaslik xisoblanadi. Leybnist obyektiv idealizm asosida aksiologik tushunchalar sistemasini yaratti, qadriyat va mukammallik, barkamollik uning o'zagini tashkil etdi, «qadrlı» esa qadriyatning ortiqligi sifatida talqin etildi.

Iqtisodiy qadriyat yoki qiymat tushunchasi rivojlanmaganidan aksiologik g'oyalarning rivojlanishida muxim axamiyatga ega bo'ladi, umumiy qadriyat tushunchasi vujudga keldi u o'z ichiga ham iqtisodiy, ham sotsial siyosiy, ham axloqiy munosabatlarni qamrab oldi.

XVII va XVIII asr qadriyat falsafasining XIX va XX asr aksiologiyasidan muhim farqi shunda ediki, birinchisida qadriyat tushunchasi umumiy xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, ikkinchisida qadriyatlar umumiyliigi siyosiy iqtisodning qiymat nazaryasini ishlab chiqishda erishgan yutuqlarini to'la hisobga oldi.

Aksiologiya sohasida nemis klassik falsafasi o'ziga xos o'rin egallaydi. Nemis klassik falsafasi vakillaridan Immanuel Kant va Fridrix Gegellar bu sohada o'z nomlarini qoldirishgan mutafakkirlardan xisoblanishadi. Nemis klassik falsafasining yirik namoyondalaridan hisoblangan I.Kant qadriyat tushunchasini eng birinchi o'rinda axloqiy asarlarida ishlatdi. Uning fikriga ko'ra qadriyatlar "nisbiy" va "mutloq" bo'lishi mumkin deydi. "Bizning irodamizga emas, balki tabiatga bog'liq predmetlar < ular aql nuri bilan yoritilgan bo'lsa >, vosita sifatida nisbiy qadriyatga egadirlar va shuning uchun ham ular narsalar deb ataladilar".¹¹ Kantning fikricha qadriyatlarning nisbiy va mutloq qadriyatlarga bo'linishi maqsadningb xarakteriga bog'liqdir. Maqsadlar subyektiv va obyektiv bo'lishi mumkin masalan, bizning irodamizga bog'liq bo'lmagan xolda mavjud bo'lgan va aql nuri bilan yoritilmagan narsalar obyektiv maqsadga ega bo'lmaydilar. Ular bizning subyektiv maqsadlarimiz bilan nisbatdosh bo'ladilar. Shuning uchun ham ular nisbiy qadriyatlaridir, "biz uchun" qadriyatlaridir. Kant shaxsni < aqlli mavjudotni > obyektiv maqsad deb atadi, ular narsalardan farqli ravishda "o'z-o'zidan maqsad" sifatida namoyon bo'ladilar, ularning mavjudligi o'z-o'zicha maqsaddir va bu maqsadni hech qanday maqswad bilan almashtirib bo'lmaydi. Shunday manoda tushuniladigan "obyektiv maqsad" qadriyatlarga mutloqlik maqomini beradi.

Kant o'zining "Muxokama qobilyatini tanqid" asarida qadriyatning borligi muammosini qo'ydi, "agar olam faqat birgina o'lik yoki qisman tirik lekin aqldan maxrum" mavjudotlardan tashkil topganida edi, bunday olamning mavjudligi xech qanday qadriyatga ega bo'lmas edi". Kantning fikriga ko'ra qadriyatlar avvaldan aqlli insonning xossasi va olamga insoniy munosabat sifatida, insoniylik va erkinlikning me'yorı sifatida mavjuddir. Inson aqli narsalar mavjudligining qadriyatini tabiatning faqat insonga bo'lgan munosabatidangina ko'rmaydi balki bu qadriyatni erkinlikda ko'radi. Olamdagi eng oily qadriyat < unga erkinlik tufayligina erishish mumkin > so'ngi maqsaddir, yani axloqiy qonun tomonidan belgilanadigan inson hayoti so'ngi maqsaddir. Shuning uchun ham Kant erkinlikning ifodasi sifatidagi "ezgu iroda"ni mutloq qadriyatning muhim sharti sifatida tariflanadi. Uning fikriga ko'ra, inson

¹⁰ Лейбниц Г. В. Соч. В 4 т. - М.: Мысль, 1982. Т. 1. С. 128

¹¹ Кант И. Соч. в 6 т. - М.: Мысль, 1965 Т. 4, Ч. 1. С. 269



haqida fikr yuritilganda, barcha tashqi munosabatlar bilan bir qatorda insonning mutloq qadriyatini nima tashkil etishini muhokama qilish zarur.¹²

Kishilarning qadriyat to'g'risidagi barcha tasavvurlarini ham xaqiqiy deb hisoblamaydi. Qadriyatlar aldamchi, yolg'n bo'lishi ham mumkin mutaffakkir aldamchi qadriyatlarga kishilarning shuxratparastlik tufayli vujutga kelgan mulohazalarni, titul va ordenlarga o'chlikni misol qilib keltirdi. U kishilarning sof subyektiv mayllari va extiyojlariga shu jumladan lazatlanishiga asoslangan qadriyat mezonlarini butunlay rad etdi.

Kant qadriyat deganda avvalo axloqiy qadriyatni nazarda tutadi. O'zining "Din faqat aql doirasida"(1793) nomli risolasida ko'rsatishicha "Qo'rquv va umidvorlik tazyiqi ostida noilojlikdan amalga oshirilgan ish-harakat hech qanday axloqiy qadriyatga ega emas, xolbuki uni yovuz odam ham amalga oshirishi mumkin. Ayni vaqtda axloqiy qadriyat zaruriy va ezgu tafakkur tarzini taqazo etadi".¹³ Kant « Amaliy aqlni tanqid »(1788) asarida alohida takidladiki, "faqat axloqiy qonun ezgulik tushunchasini belgilaydi va uni ro'yobga chiqaradi, xulq-atvor, xar qanday axloqiy qadriyatning moxiyati shundaki, axloqiy qonun bevosita irodani belgilaydi".¹⁴ Barcha yaratilgan narsalar nimagaki yarasa, ulardan faqat vosita sifatida foydalanish mumkin;faqat insongina, u bilan birga barcha aqli mavjudot o'z xolicha maqsaddir. Faqat ugina axloqiy qonunning subyektidir, axloqiy qonun o'z erkinligining avtonomiyasi tufayli maqsaddir.¹⁵

Kant fikriga nazar solar ekansiz shuni idrok etishimiz mumkinki qadriyat deganda avvalo axloqiy qadriyatni nazarda tutadi. Nega Kant aynan axloqiy qadriyatga alohida urg'u bermoqda , uning fikricha qo'rquv va biror narsadan umidvorlik xolatida amalga oshirilgan ish harakat hech qanday natijaga va axloqiy qadriyatga ega emas deydi. Chunki qo'rquv va umidvorlik evaziga amalga oshirilgan xar qanday ish , bu sabablar ketgach amalga oshirilmay qolishini anglatadi. Masalan; bemorning moddiy qobilyati yaxshiligidan xabardor bo'lgan holda unga yaxshi xizmat ko'rsatgan shifokor bu sabab yani moddiyat yoqolgan boshqa bemorga ham shunday xizmat ko'rsatishi shubhali bo'lib qoladi, aynan man shu joyda qadriyatning axloqiyligi masalasininmg o'rni yanada oshadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqsak agarda shifokorda axloqiylik yani axloqiy qadriyat yuqori bo'lsa bu yerda qadriyatni namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin, aks xolda bu xech qanday qadriyat ko'rinishiga ega emasdir.

Kant fikricha, burch inson xulq-atvori qadriyatining mezoni sifatida namoyon bo'ladi, u bizning barcha xulq-atvorimiz qqadriyatlarini baholashda birinchi o'rinda turadi va boshqa qadriyatlarining muhim sharti xisoblanadi. Agar xulq-atvor butunlay burch xissi orqali amalga ohsa, o'zining xaqiqiy axloqiy qadriyatiga ega bo'ladi. Xatti-harakatni burch hissidan kelib chiqib, yani faqat qonun bo'yicha amalga oshirilsagina, axloqiy qadriyat xaqida so'z yuritish mumkin. Kant o'zining etikaga oid asarlarida xulq atvorning axloqiy qadriyati to'g'risida yozdi. Uningg fikricha, "donishmandlr ko'z o'ngida shaxsning butun qadriyati va xatto olimlarning

¹² Кант И.Соч.В. 6т .М.:Мысль, 1965 Т4, Ч.1.С.282.

¹³ Кант И.Трактанты и письма.-М.:Наука.1980.С.186.

¹⁴ Кант И.Соч в шести т.М.:Мысль.1965.Т4 Ч.1 С.396

¹⁵ Кант И.Соч в шести т.М.:Мысль.1965.Т4 Ч.1 С.414



qadriyati xulq atvorning axloqiy qadriyatidan iboratdir”.¹⁶ Kant “qadriyat” tushunchasini faqat manaviy axloqiy manodagina qo’llab qolmadi. U “Sof aqlni tanqid” asarida “transdental logika muhokamani qadriyat nuqtai nazardan ham ko’rib chiqadi”, -deb yozdi. U qadriyat tushunchasini bilish manosida ham qo’lladi. Qadriyatni ichki va tashqi nisbiy va mutloq qadriyatga ajratdi. “Bilim mantiqiy kamolot tufayli erishadigan ichki qadriyatni amaliy tashqi qadriyat bilan taqqoslab bo’lmaydi”, - deb yozdi.¹⁷ Uning fikricha, biz qadimgilarni bilim va fanining xazinabonlariga, ularning asarlaridagi nisbiy qadriyatni esa mutloq haqiqatga aylantiramiz va ularga ko’r-ko’rona amal qilamiz. Nisbiy xaqiqatni mutloq xaqiqat darajasiga ko’tarish “haddan tashqari baholash”ni anglatadi.¹⁸

Kant “madaniyat” tushunchasini “qadriyat” tushunchasi bilan taqqoslar ekan, madaniyat insonning ijtimoiy qadriyatidan tashkil topadi, -deb yozgan. Bu shuni anglatadiki, “bu yerda asta-sekin barcha talantlar rivojlanadi, did shakllanadi va marifat sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli vaqti bilan axloqni qo’pol tabiiy kurtaklarni muayyan amaliy predmetlarga aylantirishga qodir bo’lgan tafakkur tarzining qaror topishi uchun asos solinadi”.¹⁹ Kant axloqiy qadriyatga xar qanday qadriyatning andozasi sifatida qaradi: chunki u aqlli, erkin va axloqiy mavjudot sifatidagi inson moxiyatini ifodalaydi. Ulug’ mutafakkir qadriyatning boshqa manolarini ham anglatadi. U o’zining “Axloqning metafizik asoslari” asarida nisbiy qadriyatlar tasnifini berdi. U “baho” deganda nisbiy qadriyatlarni nazarda tutdi. Kantda qadriyat universal xarakterga ega bo’lmadi, balki manaviy-axloqiy soha bilan cheklandi. Qadriyatli ongning yangi bosqichiga ko’tarilishida, shubxasiz, I.Kantning ta’limoti juda muhim ahamiyatga ega bo’ldi.

Nemis klassik falsafasining yana bir buyuk namoyondalaridan xisoblangan Georg Vilgelm Fridrix Gegel o’zing berlin unversitetida o’qigan leksiylarining birida: “Inson xayotining yaxlit qilib birlashtiradigan barcha narsalar – nimaiki qadriyat va axamiyatga ega bo’lsa, u o’z tabiati bilan manaviyatga daxladordir. Ana shu rux saltanati faqat haqiqat va huquqni anglash orqaligina yashashi mumkin”, -degan edi.²⁰ Gegel “Huquq falsafasi”da qadriyatni inson mexnatining xarakteri bilan bog’ladi. Mehnat vositasida ehtiyojlar qondiriladi va yangi extiyojlar tug’iladi. Inson yuzidan oqadigan ter va insoniy mehnat insonga uning extiyojlarini qondirish uchun vosita yaratadi.²¹ Bu v ositalar mexnat tufayligina qadriyat bo’lib qoladi.

Ilmiy o’rganishning yo’nalishlari juda ko’p. Aksiologiyaning rivoji o’tgan asrlarda G’arb faslafasida alohida o’ringa ega bo’ldi. Qaysi qadriyatlarni ustuvor bilish, jamiyat tyaraqqiyyoti uchun Qadriyatlar muammosini tahlil qilishning ildizlari qadim zamonlarga borib taqalsa-da, qadriyatshunoslik falsafiy bilimlarning maxsus sohasi sifatida o’tgan asr oxirlarida shakllanadi. “Aksiologiya” < grekcha aksio- qadriyat, logos-fan, ta’limot > nomi fanga birinchi bo’lib nemis faylasufi E.Gartman <1842-1906> va fransuz olimi P.Lari <1869-1927> tomonidan kiritilgan.²² Xozirgi davrda qadriyatlarining qanday qadriyatlarga tayanish

¹⁶ Кант И. Соч в шести т. М.: Мысль. 1965. Т.4 Ч.1 С.493.

¹⁷ Кант И. Трактаты и письма. -М.: Наука. 1980. С.350

¹⁸ Кант И. Трактаты и письма. -М.: Наука. 1980. С.387

¹⁹ Кант И. Соч в шести т. М.: Мысль. 1965. Т.6 Ч.1 С.11-12

²⁰ Гегель Г. В. Ф. Политические про извидения. -М.: Наука. 1978. С.372.

²¹ Гегель Г. В. Ф. Соч. М. Л. 1934. Т.7. С.222

²² Q.Nazarov., H.To’xtayev. Aksiologiya: Qadriyatlar falsafasi. Darslik. Toshkent “Universitet” 2022 .b.56.



lozimpligi bog'liq masalalar G'arb mutaxassislari shug'ullanadigan asosiy mavzularga aylanadi. G'arb olimlari inson qadri va shaxs manaviyati, jamiyatdagi kundalik hayoti, talab, ehtiyoj, qiziqish va intilishlari bilan bog'liq qadriyatlarni barqaror qilishning maqsadga muvofiqligini isbotlashga xarakat qildilar. Bu borada "yangi kantchilik", "pozitivizm", "yangi pozitivizm", "eksistensializm" kabi oqimlar, "industrial jamiyat", "post industrial jamiyat", "ijtimoiy barqarorlik" kabi qarashlar shakllandi. "Obyektiv", "subyektiv" va "plyuralistik" aksiologiya bilan bog'liq ilmiy yo'nalishlar dunyoga keladi. G'arb qadriyatshunosligida keng tarqalgan oqimlardan biri obyektiv aksiologiya bo'lib, uning namoyondalari V.Vindelband, G.Rikkert, M.Sheler, A.Gartman, M.Dyufrenn, G.Elzenberg, R.Shules va boshqalar reallikdan alohida yashashi mumkin bo'lgan muayyan "qadriyatlar olami" borligini etirof etadi. Ularning qariyb hammasi uchun umumiy bo'lgan ushbu qarash tarixi uzoq o'tmishga, qadimgi falsafaning mashhur namoyondasi Aflotun zamonlariga, uning "G'oyalar dunyosi" bilan bog'liq fikrlariga borib taqaladi. Yuqorida keltirilgan faylasuf va olimlarning ijodiga nazar solamiz.

Nemis olimlari V.Vindelband (1848-1915) va G.Rikkert (1963-1936) qadriyatlar muammosi borasida qariyb bir xil mulohaza yuritganlar va ularning qarashlari haqli ravishda "Vindelband-Rikkert aksiologik ta'limoti" deyiladi. Bu olimlar fikricha qadriyatlar o'ziga hos "ideal ahamiyat" sifatida zahir bo'ladi, obyektidan ham, subyektdan ham alohida mustaqil olamni vujudga keltiradi, bu olam o'ziga xos qonunlar asosida yashaydi, makon va zamon qonunlaridan ustun turadi. Shu ma'noda qadriyatlar olamidagi mavjud narsalardan ko'ra bir qadar zohiriy va mutloq haqiqatlardir. Vindelband qadriyat tushunchasining ma'nosini shu qadar keng talqin qiladiki, uningcha butun falsafa qadriyatlar, ularning eng umumiy shakllarini tahlil qilish bilan shug'ullanishi lozim. Shu manoda falsafa umumiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar haqidagi ta'limotdir.²³ Rikkert "qadriyat" va "voqelik" o'rtasidagi farqni ifodalash uchun qadrga ega bo'lgan obyektlarni "foydali" obyektlar, ularni ahamiyatini esa qadriyat deb ataydi.²⁴ Xulosa qilib aytgan da yuqoridagi olimlarning qarashlarida ba'zilarida qadriyatlarining ijtimoiy muhit va ma'naviy-axloqiy talablar bilan bog'langanligiga ko'proq etibor berilsa, bowqalarida qadriyatlar ko'proq kishini manaviy bqiyoqasi va ruxiyatini asosiy belgilari bilan bog'lab talqin qilinadi. Ijtimoiy jarayonlar juda tezlashgan, bozor munosabatlari ustuvor bo'lgan davrda, shaxsning o'z kuchiga tayanishi, o'z baxtini o'zi yaratishi uchun kurashi, o'z qobilyatiga umid bog'lashi uning qadrini belgilaydigan eng asosiy xususiyatlar bo'lib xisoblanadi.

Qadriyatlar muammosiga obyektiv nuqtai nazardan yondashgan olimlar orasida M.Sheler (1874-1928) va N.Gartmanni(1882-1950) ham tilga olmoq kerak. Sheler G'arb aksiologiyasida katta o'rin tutgan "O'zgarmas axloqiy qadriyatlar" nazaryasining asoschisi hisoblanadi. Bu nazariyaga ko'ra qadriyatlar mustaqil yashashlari mumkin, ular o'zgarmaydilar, balki bizning qadriyatlar haqida fikrimiz o'zgarib turadi.²⁵ Uning fikricha butun olam "qadriyatlar bilan to'yingandir", qadriyatlarining mavjudligi borliqqa ma'no baxsh etadi, voqelik esa qadriyatlarining o'ziga xos namoyon bo'lishidan iborat. N. Gartman qadriyatlarini "ideal ahamiyat", "ideal obyektlar", "ideal mohiyat" tushunchasi orqali ifodalaydi. Uningcha qadriyatlar ma'naviyat qonunlari asosida yashaydilar, "ideal" shaklda

²³ Винделбанд В. История новой философия.-СПб.1913.387-стр

²⁴ Rishert/Grundprobleme der Philosophie/Tub/1934/

²⁵ Sheler M/der formalismus in der ethic and die material Wertethik/ Bern/1954/



namoyon bo'ladilar. Qadriyatlar mavjudligi va amal qilishi jihatidan "Platon g'oyalari" juda o'xshaydi, deb e'tirof qiladi I Gartman.²⁶ Uning fikricha, axloqshunoslikni "qadriyatlar etikasi" sifatida qabul qilmoq kerak.

Qadriyatlarning ma'naviy jihatiga ko'proq e'tibor bergan A.Meynong esa ularning vujudga kelishida kishilarni xis tuyg'usi ko'proq axamiyat kasb etadi, degan qarashga asoslanadi. Uning fikricha xissiyot, ayniqsa qadrlash tuyg'usi, kishini, qadriyatlarni tan olishga, ularning ahamiyatini to'g'ri talqin qilishga undaydi. U ma'naviy xissiyot shakllariga mos keladigan qadriyatlarni tariflaydi. Uningcha, insonda yaxshilik tuyg'usi kuchli bo'lsa-yaxshilik, nafosat tuyg'usi ustun bo'lsa – go'zallik, odillikdan-adolat, yovuzlik tuyg'usidan jinoyat va razolat tug'ulishi mumkin.²⁷

G'arb olimi I.Richard esa inson qadrini oshirish masalasiga ko'proq e'tibor bergan. Uning fikricha: olam odamlarsiz quruq bir bo'shliqqa aylanib qoladi, o'zini qadriga yetadigan asosiy subyektidan judo bo'ladi, xech kimga keragi bo'lmaydi, voqelikni biror shakliga, narsalarga ehtiyojni qondirish uchun xarakter qiladigan odamzodgina o'sha narsalarni qadriyatga aylantirishi, ularning qadriga yetishi mumkin, qadriyatni yoqolishi esa unga ehtiyoj qolmaganligi, shu narsani odamlarga keraksiz bo'lib qolganini anglatadi.²⁸ R.Uilyams fikricha, qadriyat qiziqish, ehtiyoj, talablar, ma'naviy burch, nafosat tuyg'usi va boshqalar bilan bog'liq vujudga keladigan xolatdir. U kishining hayot yo'lini, faoliyatini, mezonini, voqealarga nisbatan o'z pozitsiyasini tanlab olayotganida muayyan ta'sir ko'rsatadigan tushunchadir.²⁹ Qadriyatlar to'g'risida bu fikrlarda ikki xil xususiyat ko'zga tashlanadi. Ularning ba'zilarida qadriyatlarning ijtimoiy muhit va ma'naviy axloqiy talablar bilan bog'langanligiga ko'proq e'tibor berilsa, boshqalarida qadriyatlar ko'proq kishini ma'naviy qiyofasi va ruxiyatini asosiy belgilari bilan bog'lab talqin qilinadi. Biz misol uchun keltirgan R.Uilyams fikri bu xilma-xillik uchun umumiy negizini topishga urinishning yaqqol ifodasidir. G'arb qadriyatshunosligining B.Yesup, M.Roder, T.Munro kabi olimlar mansub bo'lgan individual – psixologik yo'nalishi ham bor.³⁰ Bu yo'nalish vakillari shaxsiy individual qadriyatlarni atriflicha talqin qilganlar. Ular xozirgi industrial jamiyat sharoitida shaxs qobilyati, tashabuskorligi juda qo'l keladi, u aynan shular bilan bog'liq shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirishga erishishi lozim, deb ta'kidlaydilar. Ijtimoiy jarayonlar juda tezlashgan, bozor munosabatlari ustuvor bo'lgan bir davrda, shaxsning o'z kuchiga tayanishi o'z baxtinbi o'zi yaratishi uchun kurashi o'z qobilyatiga umid bog'lashi uni qadrini belgilaydigan eng asosiy xususiyatlar bo'lib xisobalanadi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki qadriyatlar masalasi aksiologiya sifatida muayyan bir fan bo'lib shakllanmagan paytlarda ham, faylasuflar va olimlarning diqqat markazida bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan qadriyatlar masalasini ildizlari uzoq o'tmishga borib tutashadi. Yuqoridagi konsepsiyalar,

²⁶ Hartman/N/Kleineri Schriten/Bd/111/1958

²⁷ Meinong A. Veber Annahmen. Amsterdam 1953.116 page

²⁸ Richards G.- Foundations of Sosiloy- N.K. 1964. 401

²⁹ Mase C.A.-Theory of Value. N.V. Zogonaris.1969. Roder M. Samothy Tbum. W.N. 1971;Munro T. Eplorasion inPersonalit N.V.1978.

³⁰ Esup B.-Theory of Value. N.V. Zogonaris.1969. Roder M. Samothy Tbum. W.N. 1971;Munro T. Eplorasion inPersonalit N.V.1978.



ta'limotlar, nazaryalar, qaraqshlar va fikrlar asosida g'arbda aksiologik konsepsiyalar evolutsiyasi shakllandi.

XULOSA

Barchaga ma'lumki, dunyoda insonlarni tili boshqa bo'lgani bilan bir-biriga oxshash odatlari bor. Bular oddiy xalq tilida odat deyilgani bilan fan tilida qadriyatlar deb ataladi bugungi globallashuv sharoitida gar'b va sharq o'rtasida aloqar avj olib bormoqda. Bu jarayonda esa tabiiyki ularning qadriyatlari jaxon xamjamiyatlari axolisiga albatta ta'sir etadi. O'ganilga natijalarga asoslanib shuni aytish mumkinki g'arb aksiologiyasida inson masalasiga aloxid e'tibor berilganini ko'rishimiz mumkin. Inson masalasiga qiziqish barcha aksiologiya faylasuflarining diqqat markazida turganini ko'rishimiz mumkin. O'ylaymanki bu maqolamiz qadriyatlar falsafasi sohasida insonlarning qadriyatlarga oid bilimlarini oshirishda oz bo'lsada sissa qo'shadi.

References:

1. Аристотель. СОЧ.в 4т. М.:Мысль 1976.Т.1.С.281
2. Античные риторики-М.: Наука,1978,С.98.
3. Бэкон Ф. Соч.В.2 т.-М.Мысл 1972.т.2. С.205-206
4. Спиноза Б.Избран. Произведения в двух томах.- М.:Госполитиздат, 5957.Т.1.С.399-400
5. Лейбниц Г.В.Соч.В4т.-М.:Мысль, 1982.Т.1.С.210
6. Кант И.Трактанты и письма.-М.:Наука.1980.С.186
7. Гегель Г.В.Ф.Политические про извидения-М.:Наука.1978С.3
8. Q.Nazarov., H.To'xtayev. Aksiologiya: Qadriyatlar falsafasi. Darslik. Toshkent "Universitet"2022. b.56.
9. Винделбанд В. История новой философия.-СПб.1913.387-стр
10. Rishert/Grundprobleme der Philosophie/Tub/1934/
11. Sheler M/der formalismus in der ethic and die material Wertethik/ Bern/1954/